

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR  
PAGES

# JOCAA

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

## Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 4

JUNE | 2023

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-4

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ – 2023

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-4>

## БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

## МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиёв Иқбол

Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор

Ходжаметова Гулчира

Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов Фахриддин

Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз Турабович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур

Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида

Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон

Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло

Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**XAYRULLAEV Nodirbek Xayrullayevich**

*San'at va madaniyat instituti*

*katta o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8019590>

## RUBOB CHOLG'USI IJROCHILIGI YUZASIDAN MUTAFAKKIRLARNING ILMIY QARASHLARI

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sharq allomalari va o'tgan asr musiqashunoslarining rubob ijrochiligining nazariy va amaliy ahamiyati bo'yicha bildirgan fikr-mulohazalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa madaniyati, rubob ijrochiligi, xalq musiqasi, an'anaviy ijrochilik.

**ХАЙРУЛЛАЕВ Нодирбек Хайруллаевич**

*Институт искусств и культуры*

*старший учитель*

## МЫСЛИТЕЛЕЙ ПО ИГРЕ НА ИНСТРУМЕНТЕ РУБОВ НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются отзывы восточных ученых и музыковедов прошлого века о теоретической и практической значимости исполнения Рубаба.

**Ключевые слова:** музыкальная культура, исполнение ревеня, народная музыка, традиционное исполнение.

**KHAIRULLAEV Nodirbek Khairullayevich**

*Institute of Arts and Culture*

*senior teacher*

## THINKERS ON PLAYING THE INSTRUMENT RUBOB SCIENTIFIC VIEWS

### ANNOTATION

This article highlights the reviews of Oriental scientists and musicologists of the last century about the theoretical and practical significance of the performance of the Rubab.

**Keywords:** musical culture, rhubarb performance, folk music, traditional performance.

Musiqa qadim zamonlardan boshlab kuchli tarbiya vositasi sifatida ta'lim – tarbiyaning barcha tizimlarida keng qo'llanilib kelinmoqda. Ko'zga ko'ringan davlat arboblari, olimlar, pedagoglar san'atning barcha turlarida jumladan musiqa san'atida ham o'quvchi-yoshlarning ongi va ruhiyatida chuqur ta'sir qilib ularda yuksak ma'naviy xislatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi sifatida qarashganlar va bunda katta e'tibor berganlar.

Musiqa san'atning har bir janri shunday mavzular mazmunini o'z ichiga oladiki, unda mamlakatning, xalqning, insoniyatning boshidan kechirgan u yoki bu davri xalqning yoki millatning ruhi ifodalanadi. Musiqa asarlarining kuchi uning halqchil va tushunarligida kishilar ichki ruhiy dunyosiga emotsional ta'sir ko'rsata olishidadir. Barkamol avlodni tarbiyalashda musiqa san'atining ana shu xususiyatini hisobda olish muhimdir. Milliy dastur yuksak ma'naviy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taqozo etar ekan bu borada musiqiy merosimizning aynan qashqar rubibining o'rni ham ahamiyatlidir.

Musiqaning keng ta'sirchan tarbiyaviy imkoniyatini O'rta asr mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuqori baholashganlar. Navoiy buyuk shoir mutafakkir olim, musiqachi, tarixchi, pedagog va mashhur davlat arbobi bo'lganligi barchamizga ayon. Shoir o'z asarlarida musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini yuqori baholaydi. U musiqa san'atida nihoyatda katta e'tibor qaratib, mazkur san'at turi kishilar ongi va ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi vosita sifatida qaragan.

Bunda u ayniqsa xalq og'zaki ijodiyoti va professional musiqa asarlariga alohida urg'u beradi va ushbu asarlar kishini ruhlantirish, unda ijobiy fazilatlarini rivojlantirish hamda yuksak his-tuyg'ularni shakllantirish kuchiga ega ekanligi xususida fanlar yuritadi. Musiqa tarbiyasi va ta'lim nazariyasi hamda amaliyoti butun madaniyatimiz bilan chambarchas bog'liq. Insoniyat madaniyatining boshqa sohalarda bo'lganidek musiqa ham uning tajribiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganish jarayonida muhim xususiyatlar va qonuniyatlar yorqin namoyon bo'ladi. O'zbek musiqa san'atining ildizlari qadim zamonlarda borib taqaladi.

Qadimgi madaniyatning kundan-kun obidalari, buyuk mutafakkirlari, shoirlari, yozuvchilarining boy adabiy merosi bundan guvohlik beradi. Tarix O'rta asrlarda talaygina atoqli musiqachilar, shoirlar san'atkorlarning nomlarini saqlab qolgan. O'rta Osiyo musiqasi haqida qimmatli ma'lumotlarni IX asrdan buyon saqlab kelayotgan yozma manbaalardan olish mumkin. O'rta asrlarda musiqa matematika va astronomiya qatori fanlarning yagona sikliga kirganligidan O'rta osiyoning ko'pgina madaniyat arboblari unda o'z asarlaridan joy ajratganlar, SHuningdek uning nazariy asoslarida maxsus risolalar bag'ishlanganlar.

Musiqa ta'limida nihoyatda katta ahamiyat bergan O'rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasida qomusiy olim Muhammad al Forobiy alohida o'rin egallaydi. Olim filosof va siyosiy masalalar bilan uzviy bog'liq holda ma'rif rivojlantirish yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish masalalariga o'z asarlaridan salmoqli joy ajratgan. Forobiy alohida o'rin egallaydi. Olim faylasof va siyosiy masalalar bilan uzviy bog'liq holda ma'rifni rivojlantirish yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish masalalariga o'z asarlaridan salmoqli joy ajratgan.

Forobiy O'rta asrlarda matematik fanlar sarasiga kirgan musiqa nazariyasining asoschilaridan biridir. Turli sohalarda ko'rib chiqilgan musiqa ijodi masalalari Forobiy asarlarida muhim o'rinni egallaydi. Uning "Kitob ul musiqiy al kabir", qalam fil musiqiy hamda "Kitob fi ixso-al ulum va al ta'rif" (fanlarning tasnifi va xarakteristikasi haqida kitob) fundamental asari nihoyatda mashhur bo'lgan. Bu asarlar musiqa fani va madaniyati sohasida keyingi taraqqiyotlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

O'zbek musiqa san'atining ildizlari juda qadimiydir. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar va arxeologik qazilma topilmalari shundan dalolat beradi. Eramizdan oldingi III asrda qariyb 2400 yil muqaddam Iskandar Zulqarnay O'rta Osiyoni zabt etganida yunonlar ajdodlarimiz xorazmiyliklarning boy musiqa madaniyatidan hayratda qolganlar.

Ularning mashshoq xonandalari ajdodlarimizning ajoyib va dilkash qo‘shiq va kuylarini yuksak ijrochilik san‘ati, shuningdek, xushnavo turli cholg‘ularini o‘rganib o‘zlarining musiqa madaniyatini boyitganlar. Natijada ayrim cholg‘ularimiz Yevropa xalqlari amaliyotida qo‘llanib yangi ko‘rinish (shakl) va nomlanishda tarqalgan (ud, lyutniya, dutor, dutor – gitara, arganik – arfa va boshqalar).

Ajdodlarimizning qadimgi zardushtiy (otashparastlik) diniy kitobi “Avesto” yozuvlarida binoan xudolarga sig‘inish bilan bog‘liq bo‘lgan turli marosimlarda ham qo‘shiqlar kuylagan. VII asrda O‘rta Osiyoga islom dinini olib kelgan arablar ham ajdodlarimiz musiqa madaniyatidan bebahra qolmadilar. IX – X asrlarga kelib, samoniylar davlatida Buxoro yuksak san‘at va ilmu-fan maskaniga aylandi. Bu davrda olamga mashhur olimlar, shoirlar va musiqachilar yetishib chiqdilar. Mashhur faylasuf al-Forobiy Ahmad Farg‘oniy alloma Abu Rayxon Beruniy buyuk, Abu Ali Ibn Sino, Abu Abdulla Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy va boshqalar O‘rta asr SHarq madaniyatida katta hissa qo‘shdilar.

XI-XVII asrlar davomida o‘zbek xalqining madaniyati yangi cho‘qqilarga erishdi. Ayniqsa pomiriylar zamonida o‘zbek musiqa madaniyati yuksak rivojlandi. Bunda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy Mirzo Ulug‘bek, Zahariddin Muhammad Bobur kabi ulug‘ allomalarning xizmatlari alohida hurmatga sazovvor. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston xonliklari rus chorizm tomonidan bosib olina boshlandi natijada musiqa madaniyatimizga Rossiya orqali Yevropa musiqasi ta’siri jarayoni boshlandi.

Sho‘ro davrida musiqa madaniyatimizda turli o‘zgarishlar ro‘y berdi, chunonchi maktab ta’limi va musiqa o‘quv yurtlarida xonandalik va cholg‘u ijrochiligi bilan bir qatorda musiqiy-nazariy fanlar kirib kela boshladi. Teatr kontsert ta’limi muassasalari tashkil etildi. Kompozitorlik musiqa ijodiyoti uslubi vujudga keldi natijada o‘zbek kompozitorlari yetishib chiqdi. Ayniqsa, shu uslubda ijod etilgan bolalar musiqasiga e’tibor kuchaydi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizday, o‘zbek xalqining musiqa madaniyati ko‘p asrlik tarixga ega. Xalq musiqa merosining sarchashmalari tarixan olislardan boshlanib xalq ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelmoqda. Xalq musiqa merosining ilk ko‘rinishi va tafakkurining taraqqiy etishi natijasida tabiat go‘zalliklaridan ilmhomlangan inson tomonidan mehnat jarayonida vujudga kelgan. Darhaqiqat, inson turmushniqo‘shiqsiz, musiqasiz, tasavvur qilib bo‘lmaydi. San‘at kishilarga faqatgina ma’naviy kamolotga erishuviga ham muhim rol o‘ynagan.

Mashhur alloma Abu Ali Ibn Sino o‘zining “Kitob-ash-shifo” asarida yozishicha “Musiqakishi ruhini davolovchi inson qalbiga kuchli ta’sir etuvchi estetik vositalardan biridir”- deydi. Musiqa va kuyning paydo bo‘lishini olish shunday izohlaydi. “Tbiatning o‘zi odamlarga nutq ato etgan. U shartli xarakterga ega bo‘lib xushomat qilganda o‘z tabiiyligini bildirganda yoki yalinib yolvorganda tovush mayinlashib natijada so‘z ta’sirli va o‘z maqsadiga erishadi. Keyin taqlid qilish ayniqsa odamlarga katta orom bag‘sh etadi”. O‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarida, tanbur, rubob, g‘ijjak, nay, karnay, sunray kabi ko‘pgina cholg‘ularining nomlari qayd qilinadi. SHoir o‘z asarlarida insonning go‘zalligini va ma’naviy boyligini ijodiy mehnatini zavq-shavqini tarannum etadi. Jumladan olim o‘z asarlarida musiqa san‘atining tarbiyaviy imkoniyati shu jumladan, qashqar rubobini yuqori baholaydi.

Umuman olganda o‘tmish mutafakkirlarimiz musiqa san‘ati borasida so‘z yuritishar ekanlar, ular musiqa san‘atining o‘sib kelayotgan va davlatimiz, xalqimiz, qolaversa butun jahonga xizmat qiluvchi barkamol avlodimiz bo‘lish yoshlarning ma’naviy axloqiy dunyoqarashlarini va ularning musiqiy idrokni shakllantirishdagi tutgan o‘rnini yuqori baholashadi. Bu bejiz emas albatta chunki, musiqa san‘atini sevib, uni chin yurakdan, qalbdan chuqur his qila oladigan, uni idrok eta oladigan inson ongi va qalbi doimo go‘zallikka ezgulikka, yaxshi niyatlar sari talpinadi.

Qalbi go‘zal bo‘lgan inson esa xunuklik va xudbinlik, qo‘pollik va noinsoflikdan xazar qiladi, nafratlanadi. Bas shunday ekan, biz-bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining asosiy vazifasi qalbi pok, go‘zal, har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazishdir. Musiqa darslari jarayonida o‘quvchilarning musiqiy idrokini shakllantirish yo‘llari haqida.

O‘rta asrlarning eng yirik va zabardast olimi, fan va madaniyat olamida o‘z o‘rni va mavqega ega bo‘lgan ulug‘ mutafakkir, buyuk allomalardan biri, shubhasiz, Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Forobiy (873-950) dunyo fani va madaniyati, uyg‘onish davrining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri bo‘lgan. Forobiy qadimgi yunon fani va madaniyatining insoniyat tsivilizatsiyasida tutgan o‘rnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, balki kishilik tarixida o‘chmas iz qoldirgan yunon olimlarining, ko‘proq Arastuning asarlarini targ‘ib qildi, ularning ko‘plarini arab tiliga tarjima qildi, sharhlar yozdi. Antik dunyo olimlarining qoldirgan meroslarini to‘la o‘zlashtirmasdan turib, fan va madaniyatni rivojlantirish mumkin emasligini yaxshi tushundi.

Yunon mutafakkirlarining “quli”ga aylanib qolmadi, balki ko‘p qirrali olim va ijodkorlarning davomchisi, o‘z davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida o‘zini namoyon qildi. Abu Nasr Forobiy “SHarq Arastusi”, “Ikkinchi muallim” nomlari bilan O‘rta Osiyo madaniyatining asoschilaridan biriga aylanganligi bejiz emas edi, albatta. Forobiyning shaxsi va ijodi ko‘pgina olimlarning diqqatini o‘ziga jalb etgan bo‘lib, u haqida ko‘pdan-ko‘p tortishuv va munozaralar bo‘lib turar edi. Uning so‘nmas ilmiy va madaniy merosi ta’siri ostida dunyoning juda ko‘p madaniyat vakillari, jumladan, Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, Nosir Xisrav, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Grigor Tativatsi, Ioane Petritsi, Rodjer Bekon, Sicher Brabantskiy va boshqa yuzlab fan ilm, ma’rifat namoyondalari shakllan, yetishib chiqdi. Abu Nasr Forobiy O‘rta asr fani va madaniyatining barcha muhim sohalarini to‘la egallagan buyuk allomadir. Uning 160 dan ortiq asar yozib qoldirganligi ma’lum. Taniqli forobiyshunos akademik Abu Nasr Forobiy - SHarqning ikkinchi muallimi [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi M.Xayrullaev o‘zining “Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri” asarida Forobiy asarlari turli mamlakatlardagi mashhur shaharlar: Sankt-Peterburg, Moskva, Toshkent, Boku, Qozon, Qohira, Bayrut, Damashq, Istanbul, Berlin, London, Parij, Madrid, Nyu-York, Haydarobod, Isfaxon, Bombey, Tehron va boshqa ko‘plab shaharlarning katta kutubxonalarida, davlat va shaxsiy qo‘lyozma fondlarida saqlanib, e’zozlanib kelayotganligi haqida yozadi.

Forobiyning buyuk alloma sifatidagi keng dunyoqarash, ko‘pqirrali ilmga ega bo‘lishlari bilan bir qatorda hunarga, kasbga ham mehr qo‘ygan insonlar sifatida tarixdan joy olganlar. Forobiy ham o‘z navbatida nazariy jihatdan musiqashunos, amaliy jihatdan taniqli bastakor, xalq uchun yaqin va qadrdon siymo sifatida nom chiqargan ustozlardan bo‘lgan. U o‘zining “Musiqa haqida so‘z” asarida musiqa tarixi, nazariyasi, musiqa cholg‘ulari, bastakorlik va ijrochilik san’ati bo‘yicha o‘z davri uchun mukammal ma’lumotlar bera olgan.

Ko‘pchilik yevropalik arabshunos olimlarning ta’kidlashlariga qaraganda, Forobiyning musiqa haqidagi fikr va mulohazalari, asarlari, unga qadar musiqa haqida yaratilgan asarlardan nafaqat o‘zining ustunligi, balki originalligi, noyobligi va yangi nazariyalar bilan to‘ldirilganligi sababli, butun Sharq va Yevropa musiqa taraqqiyotiga qo‘shilgan ulkan ulushdir.

Forobiy musiqani, insonda yuksak axloq namunalarini shakllantiruvchi, unda estetik did va go‘zallik tuyg‘ularini uyg‘otuvchi va hatto inson sihat-salomatligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi vosita deb ta’riflaganligi bizga ma’lum. Alloma musiqa cholg‘ularini shaxsan o‘zi yasar va ularni ko‘chako‘ylarda, bozorlarda, odamlar to‘planib, gurunglashib o‘tirgan vaqtlarida chalib, ularda zavq-shavq, his-tuyg‘ularni uyg‘otib, kayfiyatlarini ko‘tarar edi. Uning musiqaga bo‘lgan muhabbati, ijrochilik mahorati shu darajada ommabop, xalq hayotiga yaqin ediki, u turli rivoyatlarning to‘qilishiga sabab bo‘lgan. Rivoyat qilishlaricha, darveshona kiyingan Forobiy Halab shahrining ko‘chalarida musiqa chalib yurganligi haqida shahar hukmdoriga kimdir xabar yetkazadi.

Shahar hukmdori bu darveshni huzuriga keltirishlarini buyuradi. Choparlar Forobiyni hukmdor huzuriga yetaklab kelganlarida, shahar hukmdori o'z yaqinlari bilan kayfu safo qilib o'tirgan bo'ladi. Hukmdor keltirilgan darveshga qarab: - Aytishlariga qaraganda sen musiqa cholg'ularini juda yaxshi chalar emishsan, shu to'g'rimi? - deb so'raydi. - Demak, ular adashmaganlar, - deb javob beradi Forobiy. - Unday bo'lsa, - deydi hukmdor, - sen shunday musiqa ijro etginki, biz o'tirganlar xoxolab kulib yuboraylik, tanalarimiz ham larzaga kelsin. - Xo'p bo'ladi, - deb Forobiy ichak uzdi musiqani ijro etib, hammani kuldiradi. - Endi, - deydi hukmdor, o'zini kulgidan zo'rg'a to'xtatib, - sen bizlarni yig'latib yuboradigan musiqa ijro etib ber. - Buyrug'ingiz men uchun vojib, - deb Forobiy shunday mungli musiqa ijro etadiki, o'tirganlarning barchasi yig'lashga tushadi. Yig'idan o'zini zo'rg'a to'xtata olgan hukmdor, ko'z yoshlarini artib, yana darveshga yuzlanib deydi: - Ofarin. Endi qo'lingdan kelsa, musiqa ijro etib, bizlarni uxlatgil, biroz dam olib, o'zimizga kelib olaylik. Shunda Forobiy boshqa bir mo'jazgina musiqa cholg'uini qo'lga olib, shunday mayin, nafis tovushda musiqa ijro etadiki, o'tirganlarning barchasi uyquga ketganidan foydalanib, bir varaq qog'ozga quyidagilarni yozib, saroydan chiqib ketadi: "Sizlarni kuldirib, yig'latib, keyin uxlatib, musiqa ijro etgan darvesh aslida Forobiy edi".

Uyqudan cho'chib uyg'ongan hukmdor varaqdagi yozuvga ko'zi tushib, musiqa ijro etgan darveshni topib, zudlik bilan uni yana saroyga keltirishlarini buyuradi. Choparlar qanchalik qidirmasinlar, darveshni topishning iloji bo'lmaydi. Chunki bu vaqtda Forobiy shahardan chiqib ketishga ulgurgan edi. Abu Nasr Forobiy haqida rivoyatlar talaygina. Bu, o'z navbatida, buyuk allomaning naqadar oddiy, kamtarin inson bo'lganligidan hamda uning doimo xalq ichida kamtarona hayot kechirganligidan dalolat beradi.

Mumtoz musiqa xazinamiz, maqomlar xalqimiz o'rtasida professional va havaskor sozandalar, qashqar rubobining mohir ijrochilari va hatto maqom ijrolarini yanada salobatli bo'lishida doimo yangrab, ustozlardan-shogirdlarga, asrlardan-asrlarga o'tib, mukammallashib, boyitilib, bizning davrimizgacha yashab keldi va xalqimizning tom ma'noda ma'naviy mulkiga aylandi.

Ijrochilik san'ati o'rta asrlardan yaqin va o'rta sharq xalqlarining musiqa madaniyatida yetakchi o'rinni egallab kelgan.

Rubob ijrochiligi mashg'ulotlarida mumtoz va o'zbek xalq kuylari, qo'shiqlari orqali ta'lim oluvchilarni ijro mahoratlarini oshirish hamda estetik tarbiyalash muammosi hozirgi kunda ham nihoyatda dolzarbdir. O'zbek xalq kuylari namunalari va qo'shiqlarini aynan qashqar rubobi vositasida yangrashi, ta'lim oluvchilarni ijro mahoratlarini shakllantirish va estetik tarbiyalashda rubob ijrochiligi mashg'ulotlarining imoniyatlari katta. Zero, o'zbek xalq kuylari va qo'shiqlarida xalqning orzu-umidlari, his-tuyg'ulari, shuningdek, qahramonlik, mehnasevarlik, vatanparvarlik kabi ijobiy sifatlari ulug'lanadi. Bu esa xalqimizning urf-odatlarini va an'analarini bilan bevosita bog'liq.

**ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES**

1. A.I.Petrosyans “Cholg‘ushunoslik” 3 nashr. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995 yil.
2. I.Akbarov. «Musiqqa lo‘g‘ati». Toshkent-1987 yil.
3. Fitrat A. Uzbek klassik musiqasi va uning tarixi, Toshkent, Fan, 1993.
4. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. Toshkent, “O‘qituvchi”  
1995 yil.
5. O‘zbek xalq musiqasi, Toshkent, 1-jild, 1955 yil.
6. Taxalov S. “Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi asoslari”.  
Toshkent. “O‘qituvchi” 1983 yil.
7. Qosimov R. “Rubob navolari” Toshkent. 1993 yil.
8. Usmonov Q. “Boshlang‘ich rubob darsligi” 1 nashr Toshkent, “O‘qituvchi”.1995  
yil.

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-4

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-4

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)